PARASPORT O‘YINLARINING MANBALARDA YORITILISHI

Xamidova Shoira Rasulovna
Tarix instituti doktoranti



Annotatsiya

Mazkur maqolada xalqaro va mahalliy doirada parasportning nazariy asoslarini tashkil etuvchi ilmiy-tadqiqot ishlari haqida so‘z yuritiladi. Jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarning dastlabki sport mashg‘ulotlari tarixi, parasportning ommalashuvi, keyinchalik esa bosqichma-bosqich paralimpiya o‘yinlarining o‘tkazilish jarayonlari, para o‘yin qoidalarining nazariy qismlari haqida yozilgan manbalar: dissertatsiyalar, risola, monografiya, o‘quv-qo‘llanma va ilmiy maqolalar haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar. Parao‘yinlar, paralimpiya, nogironlik, jismoniy cheklanganlik, IOSD, IPC Handbook, tayanch-harakat tizimi, paravoleybol, integratsiyalshuv, optimallashtirish, innovatsion texnologiyalar, qo‘mita.

Анотация

В данной статье рассказывается о научно-исследовательской работе, формирующей теоретическую основу параспорта в международных и местных рамках. В частности, источники, написанные об истории первой спортивной подготовки инвалидов, популяризации параспорта, а позднее и процессах поэтапного проведения Паралимпийских игр, теоретической части правил параспорта: диссертации, брошюры, монографии, предоставлена учебная информация о пособиях и научных статьях.

Ключевые слова. Para игр, Паралимпийские игры, инвалидность, физические ограничения, IOSD, Справочник МПК, опорно-двигательный аппарат, параволейбол, интеграция, оптимизация. инновационные технологии, комитет.

Annotation

This article talks, about the scientific and research work that forms the theoretical basis of parasport in the international and local framework. In particular, sources written about the history of the first sports training of disabled people, the popularization of para-sports, and later the processes of holding the Paralympic Games in stages, the theoretical parts of the rules of para-sports: dissertations, pamphlets, monographs, educational information about manuals and scientific articles is provided.

Keywords. Para games, Paralympics, disability, physical limitation. IOSD, IPC Handbook, musculoskeletal system, para volleyball, integration, optimization. innovative technologies, committee.

Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni paralimpiya sport turlariga jalb etish jarayonlarining o‘ziga xos tarixi va bosqichlari bor. Dastlabki urinishlar XIX asrda, ya’ni 1888-yil Berlinda karlar uchun birinchi sport klubi tashkil etishdan boshlangan bo‘lsa, so‘ngra, mazkur harakatlar bosqichma-bosqich kengayib, takomillashib bordi. Bu jarayonni tahlil qiladigan bo‘lsak, masalan, ilk parasportni ommaviy ravishda targ‘ib qilish, ya’nikim nogironligi mavjud shaxslar uchun, shuningdek, parasport turlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etish va uzluksiz olib borish, keyinchalik esa kichik ko‘lamdagi para musobaqalarni tashkil etilganligini ko‘rish mumkin. Para musobaqalarda dastlab, sanoqli davlatlar va ularning parasportchilari ishtirok etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkichlar yillar kesimida oshib borgan. Bunga sabab, mamlakatlar miqyosida parasport turlariga bo‘lgan e’tibor, unga doir maxsus qaror va qonunlarning ishlab chiqilishi, parasporchilariga yaratilgan sharoitlar demakdir. 1963-yildan ko‘zi ojizlar, amputantlar va tayanch-harakat apparatida boshqa nuqsonlari bor shaxslar o‘rtasida xalqaro sport musobaqalarini tashkil etish maqsadida nogironligi bor shaxslar uchun Xalqaro sport tashkiloti tuzildi.(IOSD) 1972-yilda Sp ISRA – serebral shol bilan kasallangan kishilarning Xalqaro sport va sog‘lomlashtirish assotsatsiyasi, 1981-yilda esa – IBSA – Xalqaro ko‘rlar sport assotsiatsiyasi tuzildi. 1964-yildan e’tiboran, umurtqasi shikastlangan kishilar uchun tashkillashtirilgan o‘yinlar

ilk bor “Paralimpiya” o‘yinlari deb atala boshlagan. 1984-yildan boshlab, XOQ bellashuvlariga rasmiy ravishda Birinchi paralimpiya o‘yinlari maqomi berildi.[62]

Mazkur musobaqalarga yangi parasport turlari qo‘shilib bordi, va paralimpiya o‘yinlari ikki turga: qishki va yozgi musobaqalarga ajratilgan holda, xalqaro miqyosda o‘tkazila boshladi. Xalqaro Paralimpiya qo‘mitasi (International Paralympic Committee) ning oliy organi, maxsus ramzlari, a’zolari bilan bir qatorda, Paralimpiya harakati masalalarini tartibga soluvchi asosiy yig‘ma hujjati XPQ qoidalar to‘plami” (IPC Handbook)[63] ishlab chiqilgan bo‘lib, xuddiki, u Olimpiya Xartiyasiga o‘xshaydi. IPC Handbook va uning tarkibiy qismiga muvofiq ko‘plab masalalar qamrab olingan. Xususan, Paralimpiya o‘yinlarining tashkil etilishi va o‘yinlarning umumiy qoidalari, IPC vakolati, o‘yinlarning vaqt doirasi, diskriminatsiya va tashviqot, antidoping kodeksi, tasniflash kodi, intizomiy jazo choralari, paralimpiya o‘yinlarini o‘tkazish bo‘yicha mezbon shahar va tashkiliy qo‘mita ma’suliyati, paralimpiya harakatining vakilligi, o‘yinlar bilan bog‘liq qonunchilik, delegatsiya vakillari va ularning arizalari, o‘yinlar davomida axborot bilan ta’minlash holati, paralimpiya brendi, belgilari, para musobaqalar mobaynidagi marosimlarning o‘tkazilishi, (ochilish, yopilish) medallar bilan taqdirlash ma’rosimi, umumiy paralimpiya bayonoti va paralimpiyachilar oilasiga ko‘rsatiladigan xizmatlar haqida batafsil ma’lumotlar va qoidalar keltirilgan. Paralimpiya sport turlarining ko‘payishi, xalqaro musobaqalarning tashkil etilishi va yana yuqorida sanab o‘tilgan barcha omillar hisobiga paralimpiya harakatining nazariy asoslari ham yaratila boshlandi. Avvalroq, parasportni ilmiy jihatdan asoslash, musobaqa jarayonlarining rasmiy bayonotlari, sohaga doir o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqilgan bo‘lsa, parasport va parao‘yinlar rivojlantirish maqsadida keyinchalik, maxsus parasport turlariga ixtisoslashgan maktablar, oliy ta’lim muassasalarining tashkil etilishi, ularda alohida chuqurlashtirilgan para ixtisosliklarning mavjudligi parasportni ilmiy-nazariy tomondan ham rivojlantirdi. Darhaqiqat, parasportnining nazariy va amaliy jihatlarini ommalashtirishda parasportga ixtisoslashtirilgan muassasalarning o‘rni beqiyos. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya sport universiteti Chirchiq filialida, Adaptativ jismoniy tarbiya kafedrasining ochilishi va kafedra miqyosida parasportga doir ko‘plab olib borilgan ilmiy tadqiqotlar parao‘yinlarning nazariy manbalari vazifasini o‘tamoqda. Shuningdek, Olimpiya va Paralimpiya kollejlari qoshida, yangi Olimpiya va Paralimpiya markazlari tashkil etish bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat sport-ta’lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 6-iyundagi PQ-268-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, sport turlari bo‘yicha terma jamoalarni shakllantirish uchun sport zaxirasini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 731-sonli[64] qaroriga muvofiq: jami 15 ta(Respublika olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, Nukus, Andijon, Buxoro, Jizzax, Qarshi, Navoiy, Namangan, Samarqand, Toyloq, Guliston, Chirchiq, Termiz, Farg‘ona, Urgancha) hududda Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari tashkil etilib, olimpiya va paralimpiya ta’limi chuqurlashtirildi. Qabul qilinuvchilar uchun, kvotalar 10 foizga oshirildi. Bu esa, olimpiya va paralimpiya o‘yinlarida qatnashish istagidagi, sportga ilk qadamlarini tashlagan shaxslar uchun mustaxkam amaliy tayyorgarlik va nazariy bilimlar olish uchun ajoyib imkoniyat bo‘ldi. Parasportda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishdan asosiy maqsad – parasportning ilmiy-uslubiy asoslarini yaratish, parasportchilarning tayyorgarlik jarayonlarini optimallashtirish hamda jismoniy va funksional tayyorgarlik darajasi belgilab beruvchi metodikalarni ishlab chiqish va amaliyotda joriy ertishdan iborat. Xalqaro maydonda nogironligi bo‘lgan shaxslarni sport turlariga jalb etish, para musobaqalarda ishtirok etish, paralimpiya o‘yinlari, parasportchilar, ularning faoliyati va para o‘yin qoidalari haqida ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari yaratildi. Masalan. Jismoniy tayyorgarlikni oshirishning ilmiy-uslubiy jihatlari haqida chet el olimlaridan: T.Benn, E.Belz,

[62] Sh.A.Abdiyev. Paralimpiya o‘yinlari tarixi va rivojlanish bosqichlari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent.; 2023. 9-b.

[63] www.paralympic.org. International Paralympic Committee IPC Handbook. Paralympic Games chapter.3-4pages.

[64] Vazirlar Mahkamasining Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarini tashkiletish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori// lex.uz.

W.Brettschneider, H.Brandl-Bredenbecklar ilmiy ishlari orqali tadqiq etgan bo‘lsa, sport ko‘rsatkichlarini yaxshilab borish xususiyatlari to‘g‘risida – B.Crum, F.Carreiroda Costa hamda H.Stegemen kabi olimlar, mashg‘ulotlarda sportchilarning psixologik holatini boshqarish masalalariga doir ilmiy izlanishlarni – K.Huts, M.Theyeboom, P.De.Knoplar o‘rgangan.[65]

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarida L.M.Ivanova, G.S.Kovtun kabi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida imkoniyati cheklangan insonlarni parasport turlariga o‘rgatish va ular orasida jamoaviy parasport turlarini ommalashtirishga qaratilgan masalalarga alohida urg‘u berganlar. B.B.Gorelik, M.A.Jeleznyakov o‘z ilmiy ish namunalarida para voleybol bilan shug‘ullanadigan 10-12 yoshdagi tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo‘lgan bolalarning harakat qobiliyatlarini o‘rganish bo‘yicha tahlil etgan bo‘lsa, I.B Yerkomashvili, A.Sazanov, F.S.Solodkov, S.P.Yevseevlar adaptativ jismoniy tarbiyada yangi texnologiyalarni qo‘llash samaradorligiga oid, A.A.Gureev, B.B.Bandukov, AN.Obsyannikovlar imkoniyati cheklangan sportchilarning harakat sifatlarini rivojlantirishning asosiy omillari haqida o‘z tadqiqot ishlarida batafsil ma’lumotlar, ilmiy tahlil va shaxsiy xulosalarini yoritgan.[66] Respublikamizning bir qator olimlari ham parasport, paralimpiya o‘yinlari, umuman, imkoniyati cheklangan shaxslarni sport mashg‘ulotlariga jalb etish to‘g‘risida ko‘plab asarlar yozgan va ular bugungi kunda ilmiy muomalada keng foydalanilmoqda. Jumladan, M.X.Mirjamolov, L.B.Sobirova, E.A.O‘rinboyev, F.M.Murodov, Sh.A.Abdiyev, Z.X.Palibayeva, O.T.Shodiyev, A.Mahmudov, G.D.Po‘latova, Sh.X.G‘ofurov, N.S.Abdiqodirova, M.R.Toshev, E.A.Tursunqulov, L.T.Davlatova, Ch.A.Berdiyeva kabi mahalliy olimlarimiz tomonidan nogironligi bor shaxslarning sport bilan shug‘ullanishi, parasport qoidalari, imkoniyati cheklanganlarning imkoniyatlari haqida va shunga doir boshqa mavzularda keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borgan[67], Jumladan, dissertratsiyalar, monografiya, risola, uslubiy-qo‘llanma, darslik, o‘quv-qo‘llanma va maqolalar yozgan. Bu esa paralimpiyachilarimiz uchun sport mashg‘ulotlarida nazariy bilimlarni shakllantirib, amaliyotda qo‘llash orqali, ijobiy ko‘rsatkichlarga erishishda ko‘mak bermoqda.

---

[65] Ch.A.Berdiyeva. Imkoniyati cheklangan talaba qizlarning harakatlanish imkoniyatlaridan kelib chiqib jismoniy sifatlarini oshirishda tabaqalashtirilgan yondashuv. Ped.fanlari bo‘yicha falsafa dok, ilmiy darajasini olish uchun yozgan diss. Chirchiq.; 2024. 6-b.

[66] L.T.Davlatova. Imkoniyati cheklangan talabalarning para volleybolga o‘rgatishda maxsus harakat imkoniyatlarini oshirish uslubiyati. Ped.fanlari bo‘yicha falsafa dok, ilmiy darajasini olish uchun yozgan diss. Chirchiq.; 2023. 5-b.

[67] M.X.Mirjamolov. O‘zbekistonda jismoniy imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Ped.fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi. T.;2017. 17-30 bb. L.B.Sobirova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qaddi-qomat buzilishini oldini olishda maxsus jismoniy mashqlar majmuidan foydalanish samaradorligi. Ped. fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss… Chirchiq.;2020. 7-12 bb. E.A.O‘rinboyev. Adaptativ jismoniy tarbiya va sport.O‘quv-qo‘llanma. Chirchiq.2020. 88-96bb. Муродов.Ф.М. Физическое воспитание в дошкоьном образовании. Учебное пособие.Т.2014.с-56-68. Sh.A.Abdiyev. Tayanch-harakat apparati shikastlangan yuqori malakali uloqtiruvchilarning sport mashg‘ulotlarini optimallashtirish. PhD diss… avtoreferati. Chirchiq.2020. 81-86-bb, Sh.A.Abdiyev. Paralimpiya o‘yinlari tarixi va rivojlanish bosqichlari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma.T.; 2023.4-82 bb.Z.X.Palibayeva. Paralimpiya sportiga yangi texnologiyalar asosida adaptativ-sog‘lomlashtiruvchi metodlarni o‘zlashtirish va joriy qilish. PhD diss…avtoreferati. Chirchiq. 2022. 74-76-bb. T.O.Shodiyev. Paralimpiya sportining huquqiy asoslari. Darslik. T.; 2023. 17-109-bb. A.Mahmudov. Paralimpiya sportida psixologik tayyorgarlik. Darslik. T.; 2024. 6-20 bb. G.D.Po‘latova. Adaptativ jismoniy tarbiyada nazorat turlari va sport klassifikatsiyasi.O‘quv-qo‘llanma. T.; 2024. 7-17 bb. E.A.O‘rinboyev. Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning harakat faolligini takomillashtirish uslubiyati. PhD diss.. matni. Chirchiq. 2024. 14-60 bb. Sh.X.G‘ofurov. Adaptativ jismoniy tarbiya va paralimpiya harakati. Darslik. T.; 2023. 22-86 bb. N.S.Abdiqodirova. Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar bilan ijtimoiy ish olib borish asoslari. O‘quv-qo‘llanma. T.; 2024. 28-53 bb. M.P.Ташев. Классификация спортсменов в паралимпийских видах спорта. Учебное пособиеТ.; 2023. С12-25. L.T.Davlatova. Imkoniyati cheklangan talabalarni para voleybolga o‘rgatishda maxsus harakat imkoniyatlarini oshirish uslubiyati. PhD diss… matni. Chirchiq 2023.6-12 bb. Ch.A.Berdiyeva. Imkoniyati cheklangan talaba qizlarning harakatlanish imkoniyatlaridan kelib chiqib jismoniy sifatlarini oshirishda tabaqalashtirilgan yondashuv. PhD diss… matni. Chirchiq.; 2024. 17-27 bb.

Sohaga oid, ayrim adabiyotlar talqiniga e’tibor qaratadigan bo‘lsa, ularning aksariyati para o‘yinlar, paralimpiya sportining tarixi, umumiy qoidalar va ma’lumotlar tahlili keltirilgan. Masalan, Sh.X.G‘ofurovning “Adaptativ jismoniy tarbiya va paralimpiya tarixi” [68] nomli kitobida: nogironlar realibitatsiyasi va ularni parasportga jalb etishning asosiy maqsadi, surdopedagogika, surdoo‘yinlar tarixi, qonuniyatlari, nufuzli surdo musobaqalar, adaptativ jismoniy tarbiya va paralimpiya harakatining bosqichma-bosqich tarixi qishki va yozgi para musobaqalar xususiyatlari, paralimpiya ta’limining mazmuni, adaptativ sportning bellashuvlari, Xalqaro paralimiya Qo‘mitasining tashkil etilish tarixi va uning rivojlanish dinamikasi, O‘zbekistonda paralimiyaning rivojlanishi va parao‘yinlarning ommmalashuvi haqida to‘liq ilmiy ma’lumotlar bayon etilgan. Tadqiqotchi-olim M.R.Toshevning “Классификация спортсменов в паралимпийских видах спорта”[69] nomli kitobida, parao‘yinlar (badminton, basketbol, bochcha, voleybol, golbol, dyuzdo, paurlifting, aravachada kyorling, triathlon, aravchada regbi, para futbol) kabi parasport turlari, ularning qonuniyatlar haqida ma’lumotlar yoritilgan.

O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Adaptativ jismoniy tarbiya va sport kafedrasi mudiri, M.X.Mirjamolov va Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institute tadqiqotchisi, G.D.Po‘latova hammuallifligidagi “Adaptativ jismoniy tarbiyada nazorat turlari va sport klassifikatsiyasi” kitobida; Parasportchilarning musobaqalarda qatnashish uchun sport klassifikatsiyasiga ajratishdagi qoidalarning tashkil etililishi, maqsadi, intellectual nuqsoni bor sportchilar faoliyati, ko‘rishda zaifligi mavjud sportchilar uchun sport sinflari kabi masalalar batafsil yoritilgan.

O.T.Shodiyev muallifligidagi “Paralimpiya sportining huquqiy asoslari”[70] nomli kitobida Paralimpiya va parao‘yinlarning xalqaro va mahalliy miqyosdagi huquqiy-normativ hujjarlari tahlili keltirilgan bo‘lib, Jahon va O‘zbekiston parasportining huquqiy asoslari qiyosiy-taqqoslov usulida yozilgan. Shuningdek, vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining paralimpiya va jismoniy tarbiya va adaptativ sport sohasidagi vakolatlari hamda bu borada qabul qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar haqida so‘z yuritiladi. Bu kabi adabiyotlarni tahlil qilinsa, ularning soni, mavzular qamrovi va ko‘lami ham keng. Shu bois, ulardan bir nechtasini namuna qilindi, xolos. Yana bir jihat, paralimpiya va parao‘yinlar tarixi hamda jarayonlari haqida muhim manbalardan yana biri – matbuot nashrlari hisoblanadi. Jumladan, “Xalq so‘zi”(hukumatning parasportga doir muhim qaror va hujjatlari), “Bir safda”(asosan, ko‘zi ojizlarga doir, shu bilan birga, paralimpiya, parao‘yinlar haqidagi maqolalar) “Fan sportga”(Olimpiya va paralimpiya sport turlariga oid ilmiy maqolalar) nashr etib kelinmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, parasport va parao‘yinlar tarixini tahlil qiluvchi xalqaro va mahalliy manbalar, olimpiya va paralimpiyaga ixtisoslashgan ta’lim muassalarida asosiy o‘quv-uslubiy va nazariy yo‘l xaritasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Parasportda yuqori natijalarga erishish uchun avvalo, tizimli va uzluksiz amaliy mashg‘ulotlar muhim hisoblanadi, ammo, o‘qituvchi-trener tomonidan beriladigan ko‘rsatma va qoidalar jamlanmasining barchasi, sohaga oid manbalarda berilgan. Demak, nazariya va amaliyot uyg‘unligi – parasportchilarning yuksak natijasidir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Vazirlar Mahkamasining Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarini tashkiletish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori// lex.uz.
2. www.paralympic.org. International Paralympic Committee IPC Handbook. Paralympic Games chapter.3-4pages.
3. Sh.A.Abdiyev. Paralimpiya o‘yinlari tarixi va rivojlanish bosqichlari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent.; 2023.
4. E.A.O‘rinboyev. Adaptativ jismoniy tarbiya va sport. O‘quv-qo‘llanma. Chirchiq.2020

[68] Sh.X.G‘ofurov. Adaptativ jismoniy tarbiya va paralimpiya harakati. Darslik. T.;2023.9-190bb.

[69] М.Р.Ташев. Классификация спортсменов в паралимпийских видах спорта. Учебное пособиеТ.; 2023.с208.

[70] T.O.Shodiyev. Paralimpiya sportining huquqiy asoslari. Darslik. T.;2023.48-124 bb.

5. Sh.A.Abdiyev. Paralimpiya o‘yinlari tarixi va rivojlanish bosqichlari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma.T.; 2023.
6. Sh.X.G‘ofurov. Adaptativ jismoniy tarbiya va paralimpiya harakati. Darslik. T.; 2023
7. М.Р.Ташев. Классификация спортсменов в паралимпийских видах спорта. Учебное пособиеТ.; 2023.
8. T.O.Shodiyev. Paralimpiya sportining huquqiy asoslari. Darslik. T.;2023.
9. N.S.Abdiqodirova. Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar bilan ijtimoiy ish olib borish asoslari. O‘quv-qo‘llanma. T.; 2024.